

TALABALARNING MA'NAVIY-AXLOQIY KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH: NAZARIY ASOSLAR VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Muxambaev Temur Saparbaevich

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti 13.00.01 Pedagogika nazariyasi.

Pedagogik ta'limotlar tarixi mutaxassisligi 1-kurs tayanch doktoranti Telefon:

+998913739430 E-mail: m.t.s.2107@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17948310>

ANNOTATSIYA

Maqolada talabalarining ma'naviy-axloqiy kompetensiyasini shakllantirish masalalarining nazariy-metodologik asoslari tahlil qilingan. Ma'naviy-axloqiy kompetensiya tushunchasining mazmun-mohiyati ochib berilgan hamda uning tarkibiy qismlari belgilangan. Oliy ta'lim tizimida ma'naviy-axloqiy kompetensiyani rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari, pedagogik texnologiyalar va ularning amaliy qo'llanilishi ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, talabalarining ma'naviy-axloqiy kompetensiyasini shakllantirish jarayonida interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va integrativ yondashuvlardan foydalanish samaradorligi aniqlangan. Kalit so'zlar: ma'naviy-axloqiy kompetensiya, barkamol shaxs, milliy qadriyatlar, zamonaviy yondashuvlar, oliy ta'lim, pedagogik texnologiyalar, kompetensiyaviy yondashuv.

Kalit so'zlar: ma'naviy kompetensiya, oliy ta'lim, talabalar, ma'naviy qadriyatlar, innovatsion pedagogik texnologiyalar.

ABSTRACT

The article analyzes the theoretical and methodological foundations of forming students' spiritual and moral competence. The content and essence of the concept of spiritual and moral competence are revealed, and its components are identified. Modern approaches to developing spiritual and moral competence in higher education, pedagogical technologies and their practical application are examined. According to research results, the effectiveness of using interactive methods, information and communication technologies, and integrative approaches in the process of forming students' spiritual and moral competence has been determined.

Keywords: spiritual and moral competence, harmonious personality, national values, modern approaches, higher education, pedagogical technologies, competence-based approach.

АННОТАЦИЯ

В статье проанализированы теоретико-методологические основы формирования духовно-нравственной компетентности студентов. Раскрыта сущность и содержание понятия «духовно-нравственная компетентность», а также определены её основные компоненты. Рассмотрены современные подходы к развитию духовно-нравственной компетентности в системе высшего образования, педагогические технологии и особенности их практического применения. По результатам исследования установлена эффективность использования интерактивных методов, информационно-коммуникационных технологий и интегративных подходов в процессе формирования духовно-нравственной компетентности студентов.

Ключевые слова: духовно-нравственная компетентность, гармонично развитая личность, национальные ценности, современные подходы, высшее образование, педагогические технологии, компетентностный подход.

KIRISH

Hozirgi davrda globallashuv jarayonlari, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar yoshlar ongiga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Bu sharoitda yosh avlodni barkamol shaxs sifatida tarbiyalash, ularda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy kompetensiyani shakllantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5040-son qarori [1], 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni [2] va bir qator boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar talabalarning ma'naviy-axloqiy kompetensiyasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilganligidan dalolat beradi. Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida talabalar nafaqat kasbiy bilim va ko'nikmalarni egallashlari, balki ular zamirida milliy g'oya va qadriyatlarga sodiqlik, axloqiy mezonlar, fuqarolik mas'uliyati kabi sifatlarni ham shakllantirish zaruriyati mavjud. Ma'naviy-axloqiy kompetensiya shaxsning jamiyatda o'z o'rnini topishi, hayotiy vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilishi va professional faoliyatida axloqiy tamoyillarga amal qilishining asosiy omilidir. Tadqiqot maqsadi talabalarning ma'naviy-axloqiy kompetensiyasini shakllantirish jarayonining nazariy asoslarini ochib berish, zamonaviy pedagogik yondashuvlar va texnologiyalarning imkoniyatlarini aniqlashdan iborat.

MA'NAVY-AXLOQIY KOMPETENSIYA: TUSHUNCHA VA MAZMUN-MOHİYATI

Ma'naviy-axloqiy kompetensiya masalasini to'g'ri tushunish uchun avvalo "kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalarining mazmunini aniqlash zarur. So'nggi yillarda ta'lim sohasida kompetensiyaviy yondashuv keng qo'llanilmoqda va bu yondashuv an'anaviy bilim, ko'nikma va malakalar tizimidan farqli o'laroq, talabaning real hayotiy vaziyatlarda o'z bilimlarini amalda qo'llay olish qobiliyatiga asoslanadi.

A.V.Xutorskiy kompetensiyani "shaxsning ma'lum ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan sohadagi faoliyatida ko'zga tashlanadigan shaxsiy fazilatlari (qadriyatlar yo'nalishlari, bilimlari, ko'nikmalari, qobiliyatlari)" [3] sifatida ta'riflaydi. Kompetentlik esa bu kompetensiyaning shaxsda namoyon bo'lgan holati, ya'ni insonning ma'lum bir sohada samarali faoliyat olib borishi uchun zarur bo'lgan shaxsiy fazilatlari majmuidir [4]. Ma'naviy-axloqiy kompetensiya - bu shaxsning jamiyatda o'zini tutishi, muomala va faoliyatida axloqiy meyorlar, ma'naviy qadriyatlar, milliy va umuminsoniy g'oyalarni ongli ravishda qo'llash hamda hayotiy tajribasida ularni samarali tatbiq eta olish qobiliyatidir. U nafaqat bilimlar majmuasi, balki insonning ichki dunyosi, odob-axloqi, hayotiy pozitsiyasi, axloqiy tanlovi va ijtimoiy faoliyatida namoyon bo'ladigan integrativ sifat hisoblanadi [5].

Ma'naviy-axloqiy kompetensiyaning tarkibiy qismlari Ma'naviy-axloqiy kompetensiya murakkab, ko'p qirrali tushuncha bo'lib, quyidagi asosiy komponentlardan tashkil topgan:

1. Kognitiv (bilish) komponenti Bu komponent talabaning ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, milliy va umuminsoniy g'oyalar, axloqiy mezonlar haqidagi bilimlarini o'z ichiga oladi. Shuningdek, ezgulik va yovuzlik, adolat va zulm, halollik va xiyonat kabi tushunchalarni chuqur anglash, ularning mohiyatini tushunish bu komponentning asosini tashkil etadi.

2. Emotsional-qadriyatli komponenti Talabaning milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, madaniy merosga, axloqiy tamoyillarga nisbatan munosabati, hissiy munosabat bildirish qobiliyati, empatiya (hamdardlik) ko'rsata olishi bu komponentga kiradi. O'z xalqi, Vatani, til va madaniyatiga nisbatan iftixor tuyg'usi ham shu komponentning muhim qismidir [6].

3. Motivatsion-faoliyat komponenti Ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga amal qilishga intilish, hayotiy faoliyatda axloqiy tamoyillarni qo'llash, ijobiy xatti-harakatlarga moyillik, ijtimoiy foydali ishlar va ko'ngillilik faoliyatida ishtirok etishga tayyorlik shu komponentni tashkil etadi.

4. Refleksiv-baholovchi komponenti O'z xatti-harakatlarini, qarorlarini axloqiy nuqtai nazardan tahlil qila olish, o'z-o'zini tanqidiy baholash, xatolardan xulosa chiqarish va o'z shaxsiy rivojlanishini ongli ravishda boshqarish qobiliyati muhim ahamiyat kasb etadi [7].

5. Amaliy-kommunikativ komponenti Muomala madaniyati, boshqalarning huquq va manfaatlarini hurmat qilish, jamoada ishlash ko'nikmalari, konfliktsiz muloqot yurita olish, bag'rikenglik va mehribonlik ko'rsatish kabi amaliy ko'nikmalar bu komponentning mohiyatini belgilaydi.

KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Zamonaviy ta'limda kompetensiyaviy yondashuv asosiy yo'nalish sifatida e'tirof etilgan. Dunyo ta'lim tizimida kompetensiyalar masalasi Yevropa Kengashining Bologna deklaratsiyasi (1999) qabul qilinganidan keyin yanada dolzarblik kasb etdi. Xalqaro Deklaratsiyaning "Umumiy o'rta ta'lim va kasbiy oliy ta'lim hamda katta yoshdagilar ta'limi" nomli 12-bobida ta'limning uch bosqichi e'tirof etilgan hamda xalqaro mehnat bozorida hayot sur'atlari shiddat bilan tezlashayotgan globallashuv: yuqori texnologiya, yalpi axborotlashtirish, iqtisodiyotning real tarmoqlarida raqamlashtirish davrida shaxsning "butun hayoti uchun emas, balki butun umri davomida o'zining bilimi, amaliy ko'nikma va kompetensiyalarini shakllantirish va takomillashtirish" asnosida mustaqil va muntazam ta'lim olish huquqini kafolatlash bo'yicha izlanishlar olib borilmoqda [8]. O'zbekiston olimlaridan N.N.Karimova, X.Sh.Qodirov, J.R.Turmatovlarning ishlarida talabalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari qaralgan [9]. N.A.Muslimov va O.A.Qo'ysinovlar kompetentlikning ikki tarkibiy qismini ajratib ko'rsatadilar: birinchisi - me'yoriy hujjatlarda belgilab qo'yilgan ta'lim natijalari, ikkinchisi esa ijtimoiy talablar va ehtiyojlar tomonidan belgilanadigan, jamiyatning rivojlanishiga mutanosib ravishda universal, o'zgaruvchan qism [10].

Ye.F.Zeyerning ta'kidlashicha "maxsus kompetensiyalar - bu mutaxassisning o'z kasbiy faoliyatini mustaqil amalga oshirishga tayyorligini va o'z mehnatini baholash qobiliyati sifatidir" [11]. V.D.Shadrikov esa maxsus kompetensiyani konkret obyekt yoki mehnat predmeti bilan bog'liq nazariy bilim va ko'nikmalar tizimi sifatida ta'riflaydi [12]. Ma'naviy-axloqiy kompetensiya kontekstida bu yondashuvlar shuni ko'rsatadiki, talabalar nafaqat nazariy bilimga ega bo'lishlari, balki real hayotiy vaziyatlarda axloqiy qaror qabul qila olish, milliy qadriyatlarga amal qilish, ijtimoiy mas'uliyatni his etish kabi amaliy ko'nikmalarga ham ega bo'lishlari zarur.

TALABALARNING MA'NAVIY-AXLOQIY KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI

Talabalarning ma'naviy-axloqiy kompetensiyasi bir necha omillarning ta'siri ostida shakllanadi: 1. Ta'lim jarayoni omillari Oliy ta'lim muassasalarida o'quv dasturlari, o'quv-tarbiyaviy ishlar, darsdan tashqari tadbirlar, ma'naviy-ma'rifiy mashg'ulotlar talabalarning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. 2021/2022 o'quv yilidan boshlab oliy ta'lim tizimining tegishli ta'lim yo'nalishlari o'quv rejalariga bakalavriat bosqichida "Ma'naviyatshunoslik", magistratura bosqichida "Kasbiy ma'naviyat" fanlarining kiritilishi bu boradagi davlat e'tiborining yuksak darajasini ko'rsatadi.

2. Oilaviy tarbiya omillari Oila - talabaning shaxsiy ma'naviy dunyoqarashi shakllanadigan dastlabki muhit hisoblanadi. Ota-onalarning tarbiya uslubi, oiladagi munosabatlar, qadriyatlarga munosabat talabaning ma'naviy-axloqiy rivojlanishiga bevosita ta'sir qiladi [13].

3. Ijtimoiy muhit omillari Tengdoshlar guruhidagi munosabatlar, jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, madaniy muhit, mahalla va jamoatchilik tashkilotlarining faoliyati talabalarning ma'naviy-axloqiy kompetensiyasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

4. Axborot muhiti va OAV ta'siri Zamonaviy sharoitda internet, ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy axborot vositalari, kino va adabiyot yoshlarning qadriyatlar tizimiga kuchli ta'sir etmoqda. Axborot oqimlarining ko'payishi, turli madaniy va g'oyaviy yo'nalishlarning kirib kelishi talabalarning ma'naviy immunitetini mustahkamlash zaruriyatini tug'diradi [14].

5. Davlat siyosati va yoshlar siyosati Milliy g'oyaning targiboti, yoshlar siyosati dasturlari, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish, Yoshlar ittifoqi va boshqa tashkilotlarning faoliyati talabalarning ma'naviy-axloqiy rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsatadi.

ZAMONAVIY PEDAGOGIK YONDASHUVLAR VA TEXNOLOGIYALAR

Talabalarining ma'naviy-axloqiy kompetensiyasini samarali shakllantirish uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish zarur. Quyida eng samarali texnologiyalar tahlil qilinadi:

1. Interfaol ta'lim metodlari Interfaol metodlar talabalarning faol ishtirokini, mustaqil fikrlashini va axloqiy qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishni ta'minlaydi. Debat, rolli o'yinlar, "aqliy hujum", keys-stadi, guruh muhokamasi kabi metodlar talabalarni real hayotiy vaziyatlarni tahlil qilishga, turli nuqtai nazarlarni baholashga va axloqiy tanlov qilishga o'rgatadi [15]. Debat metodi - talabalar ma'lum bir mavzu bo'yicha ikki qarama-qarshi pozitsiyani himoya qilish orqali argumentatsiya ko'nikmalarini rivojlantiradilar, turli qarashlarni hurmat qilishni o'rganadilar. Rolli o'yinlar - talabalar turli ijtimoiy rollarni o'ynash orqali empatiya (hamdardlik) qobiliyatini rivojlantiradilar, boshqalarning pozitsiyasini tushunishni o'rganadilar. Keys-stadi (vaziyat tahlili) - real yoki maxsus yaratilgan axloqiy muammoli vaziyatlarni tahlil qilish orqali talabalar to'g'ri qaror qabul qilish tajribasini egallaydilar.

2. Muammoli ta'lim texnologiyasi Muammoli ta'lim talabalarni mustaqil fikrlashga, ijodiy yechimlar topishga undaydi. Ma'naviy-axloqiy kontekstda muammoli vaziyatlar yaratish talabalarning axloqiy tanlov qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Masalan, professional faoliyatda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan axloqiy dilemmalarni tahlil qilish orqali talabalar o'z qadriyatlar tizimini mustahkamlaydilar

3. Loyihaviy faoliyat Ijtimoiy-foydali loyihalar, ko'ngillilik ishlar, xayriya tadbirlari talabalarni amaliy faoliyatga jalb etish orqali ularning ijtimoiy mas'uliyat tuyg'usini, empatiyasini va bag'rikengligini rivojlantiradi. Jamoa bo'lib biror ijtimoiy muammoni hal qilish jarayonida talabalar hamkorlik, mas'uliyat, hamdardlik kabi muhim sifatlarni egallaydilar.

4. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) Zamonaviy ta'limda AKT dan foydalanish talabalarning mustaqil ta'lim olish madaniyatini rivojlantiradi. Elektron kutubxonalar, virtual darslar, onlayn-platformalar orqali talabalar milliy va jahon ma'naviy merosiga kengroq kirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Biroq, bu texnologiyalarni qo'llashda talabalarning axborot madaniyatini, tanqidiy fikrlashini ham rivojlantirish muhim.

5. CLIL (Content and Language Integrated Learning) texnologiyasi CLIL yondashuvi chet tilini o'rganish jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlar, madaniy xususiyatlar bilan tanishtirishni nazarda tutadi. Bu usul talabalarning interkulturaliligini (madaniyatlararo kommunikatsiya qobiliyati) va qadriyatlarga hurmatini rivojlantiradi.

6. Refleksiv ta'lim Refleksiya - talabani o'z faoliyati, xatti-harakatlari, qarorlarini tahlil qilish jarayoni. Ma'naviy-axloqiy tarbiyada refleksiv yondashuv talabalarni o'z harakatlarini axloqiy nuqtai nazardan baholashga, xatolardan xulosa chiqarishga o'rgatadi. Kundalik yozish, o'z-o'zini baholash varaqlari, shaxsiy portfel (portfolio) kabi vositalar refleksiv faoliyatni tashkil etishda qo'llaniladi.

TALABALARNING MA'NAVIY-AXLOQIY KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH BOSQICHLARI

Talabalarning ma'naviy-axloqiy kompetensiyasini maqsadli ravishda rivojlantirish uchun bosqichma-bosqich yondashuv zarur: Birinchi bosqich: Motivatsion-tayyorlov bosqichi Bu bosqichda talabalarni ma'naviy-axloqiy qadriyatlar bilan tanishtiriladi, ularda bu qadriyatlarga qiziqish uyg'otiladi, ma'naviy-axloqiy kompetensiyaning ahamiyatini anglashga erishiladi. Diagnostika o'tkazish, talabalarning boshlang'ich kompetensiya darajasini aniqlash ham shu bosqichda amalga oshiriladi. Ikkinchi bosqich: Kognitiv-bilimli bosqich Talabalar ma'naviy-axloqiy tushunchalar, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, axloqiy mezonlar haqida tizimli bilim oladilar. Maxsus fanlar, ma'ruza-seminarlar, tadbirlar orqali nazariy bilim beriladi. Uchinchi bosqich: Faoliyatli-amaliy bosqich Talabalar olingan bilimlarni amaliy faoliyatda qo'llaydilar: loyiha ishlarida, ko'ngillilik faoliyatida, ijtimoiy tadbirlarda ishtirok etadilar. Bu bosqichda real hayotiy vaziyatlarda axloqiy qaror qabul qilish ko'nikmalari shakllanadi. To'rtinchi bosqich: Refleksiv-baholovchi bosqich Talabalar o'z faoliyatlarini, xatti-harakatlarini tahlil qiladilar, o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Shaxsiy rivojlanish rejalari tuziladi, o'z ustida ishlash yo'nalishlari aniqlanadi. Beshinchi bosqich: Kreativ-ijodiy bosqich Eng yuqori bosqich bo'lib, talabalar nafaqat o'zlari axloqiy tamoyillarga amal qiladilar, balki atrofida gilarni ham ijobiy ta'sirga olib keladilar, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni tarqatuvchiga aylandilar.

XULOSA

Talabalarning ma'naviy-axloqiy kompetensiyasini shakllantirish - bu murakkab, ko'p qirrali va uzoq muddatli jarayon bo'lib, u nazariy bilim berish, amaliy ko'nikmalarni egallash, shaxsiy sifatlarni rivojlantirish va qadriyatlar tizimini mustahkamlashni o'z ichiga oladi. Tadqiqot natijalari quyidagilarni ko'rsatadi:

1. Ma'naviy-axloqiy kompetensiya tushunchasi ko'p komponentli bo'lib, kognitiv, emotsional-qadriyatli, motivatsion-faoliyat, refleksiv-baholovchi va amaliy-kommunikativ komponentlarni o'z ichiga oladi.

2. Talabalarning ma'naviy-axloqiy kompetensiyasini shakllantirish jarayoniga ta'lim muhiti, oilaviy tarbiya, ijtimoiy muhit, axborot maydoni va davlat siyosati kabi omillar ta'sir qiladi.

3. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar - interfaol metodlar, muammoli ta'lim, loyihaviy faoliyat, AKT, refleksiv yondashuv - talabalarning ma'naviy-axloqiy kompetensiyasini samarali rivojlantirishning asosiy vositalaridir.

4. Kompetensiyani shakllantirish bosqichma-bosqich amalga oshirilishi lozim: motivatsion-tayyorlov, kognitiv-bilimli, faoliyatli-amaliy, refleksiv-baholovchi va kreativ-ijodiy bosqichlar orqali.

5. Oliy ta'lim muassasalarida "Ma'naviyatshunoslik" va "Kasbiy ma'naviyat" fanlarining kiritilishi talabalarining ma'naviy-axloqiy kompetensiyasini tizimli rivojlantirish uchun asos yaratadi. Xulosa qilib aytganda, globallashuv sharoitida talabalarining ma'naviy-axloqiy kompetensiyasini shakllantirish milliy qadriyatlarimizni saqlash, barkamol avlodni tarbiyalash va jamiyat taraqqiyotini ta'minlashning asosiy omilidir. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar va texnologiyalarni samarali qo'llash orqali talabalarni nafaqat malakali mutaxassis, balki yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarga ega, mas'uliyatli, vatanparvar fuqaro sifatida tarbiyalash mumkin.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5040-son qarori. 2021-yil 26-mart. // www.lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. 2022-yil 28-yanvar. // www.lex.uz
3. Хуторской А.В. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированного образования // Народное образование. – Москва, 2003. – №2. – С.60-64.
4. Селевко Г.К. Компетентности и их классификация // Народное образование. – Москва, 2004. – №4. – С.138-143.
5. Mustaqillik: izohli ilmiy-ommabop lug'at. Ikkinchi nashr. - Toshkent: "Sharq", 2000. - 144 b.
6. Куронов М. Миллий тарбия. - Тошкент: «Маънавият», 2007. - 231 б.
7. Bozorov U.S. Talaba-yoshlarni kasbiy-huquqiy kompetensiyalarini rivojlantirish ijtimoiy-pedagogik xususiyatlari // O'zbekiston milliy universiteti xabarлари. - Toshkent, 2023. - № 1/4/1. - B.72-74.
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1059-son qarori. 2019-yil 31-dekabr. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
9. Қўйсинов О.А. Компетентли ёндашув асосида бўлажак ўқитувчиларнинг касбий-педагогик ижодкорлигини ривожлантириш технологиялари: Пед.фан.док.дисс. - Тошкент, 2019. - 221 б.
10. Muslimov N.A., Qo'ysinov O.A. Ta'limda kompetensiyaviy yondashuv: nazariya va amaliyot. - Toshkent: "Fan va texnologiya", 2015. - 184 b.
11. Зеер Э.Ф. Модернизация профессионального образования. Компетентностный подход: учебное пособие. - М.: МПСИ, 2005. - 216 с.
12. Шадриков В.Д. Базовые компетенции педагогической деятельности. - Москва: Педагогика, 2008. - 148 с.
13. Белова М. Система взаимодействия воспитательных факторов. - Москва: Педагогика, 2007. - 156 с.

14. Андреев В.И., Голованова И.И., Телегина Н.В. Педагогика творческого саморазвития.
- Казань: КГУ, 2010. - 567 с. 16а

